XALQ DEPUTATLARI TUPROQQAL'A TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 8-yanvar VII-17-3-12-218-K/26 Tuproqqal'a tumani

Xalq deputatlari Tuproqqal’a tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Tuproqqal’a tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-023-12-218-K/24-sonli qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

Bugungi kunda ushbu qarorning amaldagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish uchun budjet parametrlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 127-, 147- va 148-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi qonuniga asosan xalq deputatlari Tuproqqal’a tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuproqqal’a tumani budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘lar bo‘yicha 2025-yilda tasdiqlangan xarajatlar 73 mlrd. 977,0mln. so‘m bo‘lib, budjet parametrlariga kiritilgan o‘zgarishlardan keyin reja 83 mlrd. 18,0 mln. so‘mni, ya’ni tasdiqlangan rejaga nisbatan 9 mlrd. 41,0 mln. so‘mga ko‘p xarajatlarni tashkil qilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Atabayev)ning budjet parametrlariga qo‘shimcha o‘zgartirish kiritish yuzasidan taklifi ma’qullansin.

3. Xalq deputatlari Tuproqqal’a tumani Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Tuproqqal’a tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-4-023-12-218-K/24-sonli qarorining ilovalariga quyidagicha o‘zgartirishlar kiritilsin:

2025-yil uchun tuman mahalliy budjet daromadlarning reja ko‘rsatkichlari 1-ilovaga;

2025-yil uchun tuman budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga;

2025-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 3-ilovaga.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Atabayev)ga daromadlar va xarajatlar rejasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini belgilangan tartibda rasmiylashtirish topshirilsin.

5. Mazkur qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilinsin.

6. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya”si” raisi I.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **JIMALYAZOV AKMAL ORTIQOVICH**

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-17-3-12-218-K/26 -son qaroriga
1-ilova

(ming so‘mda)

Daromad turlari		Tasdiqlangan reja	Kiritilgan o‘zgarish	Aniqlangan reja
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	26,673,600.0	0.0	26,673,600.0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	6,351,000.0	0.0	6,351,000.0
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	467,000.0	0.0	467,000.0
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	10,028,000.0	0.0	10,028,000.0
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2,462,000.0	0.0	2,462,000.0
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3,777,584.0	144,097.0	3,921,681.0
7	Yuridik shaxslarning yer solig‘i	13,305,000.0	0.0	13,305,000.0
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soliq	4,506,000.0	171,882.0	4,677,882.0
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	10,000.0	0.0	10,000.0
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	6,228,800.0	0.0	6,228,800.0
11	Qishloq xo‘jaligi korxonalarining suv solig‘i	0.0	0.0	0.0
12	Qishloq xo‘jaligi korxonalarining suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5) (VMQ-79)	1,153,200.0	0.0	1,153,200.0
11	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	168,000.0	0.0	168,000.0
JAMI		**73,976,984.0**	**315,979.0**	**74,292,963.0**

Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetining 2025-yil uchun daromadlarning reja ko‘rsatkichlari

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-17-3-12-218-K/26 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun tuman budjetidan hududiy budjet mablag’larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag’larning umumiy cheklangan miqdorlari

(ming so‘mda)

№	Hududiy byudjet mablag’lari taqsimlovchilar nomi	Tasdiqlangan reja	Kiritilgan o‘zgarish	Aniqlangan reja
Xarajatlar miqdori, jami		**73,976,984.0**	**9,041,254.2**	**83,018,238.2**
1	Maktabgacha va maktab tahlimi bo‘limi	19,107,309.0	7,022,898.0	26,130,207.0
	shundan:			
	"Mening maktabim"	1,264,156.0	0.0	1,264,156.0
2	Tibbiyot birlashmasi	0.0	0.0	0.0
	shundan:	0.0	0.0	0.0
	Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi	*0.0*	*0.0*	*0.0*
3	Madaniyat bo‘limi	2,653,772.0	134,729.8	2,788,501.8
4	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	2,423,017.0	33,614.0	2,456,631.0
5	Sport bo‘limi	3,184,763.0	-500,445.3	2,684,317.7
6	Kambag’allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1,925,394.0	33,036.0	1,958,430.0
7	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1,615,312.0	713,929.0	2,329,241.0
8	Irrigatsiya bo‘limi	894,839.0	-126,321.0	768,518.0
9	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2,094,515.0	15,429.8	2,109,944.8
10	Davlat soliq inspekciyasi	0.0	105,822.0	105,822.0
11	Hokimyat	27,058,881.0	1,232,036.9	28,290,917.9
	shundan:	0.0	0.0	0.0
	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	*94,341.0*	*-6,435.0*	*87,906.0*
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	*11,550.0*	*-11,550.0*	*0.0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg’armasi	*18,926,817.0*	*0.0*	*18,926,817.0*
	"Mahalla byudjeti" jamg’armasi mablag’lari	*583,000.0*	*315,979.0*	*898,979.0*
	Zahira jamg’armasi	*864,601.0*	*16,900.0*	*881,501.0*
12	Hokimyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	434,244.0	137,117.6	571,361.6
	shundan:	0.0	0.0	0.0
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*41,452.0*	*0.0*	*41,452.0*
	Axborot-kutubxona markazlari	*392,792.0*	*137,117.6*	*529,909.6*
13	Hokimyat (Obodonlashtirish boshqarmasi)	12,584,938.0	239,407.4	12,824,345.4
14	Boshqa tashkilotlar	0.0	0.0	0.0

Xalq deputatlari Tuproqqal'a tumani
Kengashining
2026-yil 8-yanvardagi
VII-17-3-12-218-K/26 -son qaroriga
3-ilova

Tuproqqal’a tumani mahalliy budjetining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

(ming so‘mda)

Ko‘rsatkichi	Tasdiqlangan reja	Kiritilgan o‘zgarish	Aniqlangan reja
Daromad	73,976,984.0	315,979.0	74,292,963.0
Xarajatlar	73,976,984.0	9,041,254.2	83,018,238.2